

**QORAQALPOQ XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI ISLOMIY AFSONA VA RIVOYATLAR.**

**Kosbergenov B.**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI assistent o'qituvchisi*

**Kosbergenov R**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI assistent o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** *Afsona, rivoyat, urf-odat, ma'naviyat, folklore, din, "Qur'on", Ollah, Payg'ambar, islom, Jannat, do'zax, ilm.*

**Ключевые слова:** *Миф, повествование, традиция, духовность, фольклор, религия, "Коран", Аллах, пророк, ислам, рай, ад, наука.*

**Key words:** *Legend, narration, tradition, spirituality, folklore, religion, "Quran", Allah, Prophet, Islam, Paradise, hell, science.*

**Rezyume:** *Maqola asosan qoraqalpoq folkloridagi islomiy afsona va rivoyatlar, ularning inson e'tiqodlari, odamlarning hayot bilan maxkam aloqadorligi va rivojlanish masalalariga bag'ishlangan.*

**Резюме:** *Статья в основном посвящена исламским мифам и легендам в каракалпакском фольклоре, их человеческим верованиям, особой связи людей с жизнью и развитием.*

**Summary:** *The article is mainly devoted to Islamic myths and legends in Karakalpak folklore, their human beliefs, the special connection of people with life and development.*

Afsona va rivoyat bu tarixiy joylarga, tarixiy odamlarga, tarixiy hodisalarga ta'luqli badiiy parvoz bilan aytiladigan, ichida xayoliy hodisalar bor bo'lgan og'zaki gaplar. Bundan tashqari afsona va rivoyatlar faqat tarixiy voqelardan tashqari, ular o'z mazmunida qadim davrlardan kelayotgan diniy etiqodimizni, urf-odatlarimizni, har hil milliy ma'naviy madaniyatimizning uzoq vaqtlar davomida paydo bo'lish, rivojlanish bosqishlarin o'rganishga keng imkoniyatlar va ma'lumotlar beradi.

Qoraqalpoq folklorida islomiy afsona va rivoyatlar keng uchrashadi. Demak, din bilan afsona va rivoyatlarning aloqadorligini o'rganish masalasi kelib shiqadi. Islom dinining mazmunini ochib berishda, yangi tushunchalarni keltirib shiqarib, yoshlarning ilmini va dunyoqarashini yanada chuqurlashtirishda, afsona va rivoyatlarning beqiyosdir. Biz bu maqolada islom dinining murakkab tomonlarin afsona va rivoyatlar yordamida ochib berishga harakat qilamiz.

Afsona va rivoyatlarning xalq arosida eng keng tarqalganlari diniy mazmundagilar bo'lib, shulardan "Oxirat", "Ollahning roziligi", "Hukm", "Ajaldan qochish", "Qur'on" haqidagi rivoyatlarni olib qaraylik. Islom ta'limotiga ko'ra u dunyoga ishonch, ya'ni u dunyoning borligiga iymon keltirish har bitta musulmonning farzi. Boshqa dinlarda bo'lganligi kabi, islom dinida ham jannat va do'zax tushunchasi mavjud. Odamlarning qaysi

biriga borishini, bu dunyo sinovlari belgilaydi. Shu sababli islom diniga aloqador eng kop tarqalgan afsona va rivoyatlarning aksariyati, u dunyo haqidagisi hisoblanadi.

U dunyo haqidagi "Olloning roziligi" nomli afsonada kuydagicha keltirilgan:

«Tangri qiyomat kuni bandasiga:

-Hoy bandam, betob bo'lib yotdim, nimaga meni kelib ko'rmading? -debdi.

Shunda bandasi hayron bo'lib:

-Hoy, Robbim, sen mendan uzoqdasan. Seni qanday ko'rishim mumkin edi? - debdi.

Tngri shunda :

-Eng yaqin do'sting betob bo'lganda borib ko'rmading. Agar borganingda meni o'sha erda ko'rarding, -debdi va so'zini davom ettirib;

-Nodon bandam, o'zing to'q bo'lding, biroq, meni o'ylamading,-debdi.

-Yaratgan egam! Butun olam qo'lingda. Men qanday sening g'amingni yeyman?-debdi bandasi.

-Senga o'qshagan bir bandam oldinga muxtoj bo'lib borganda, xo'jatini shiqarmading. Unga yordam berganingda, meni ko'rga bo'lar eding,- debdi» [1:230]. Afsonaning mazmuniga qaraydigan bo'sak, Olloh huzuridagi bandasin, do'zaxga jo'natganin ko'rishimiz mumkin. Sababi, bu inson umri davomida savob ish qilmaganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shunga qaramastan Olloh bilan bandasining arshi a'loda tortishuvida katta ma'no bor. «Olloh Al Imron surasida kuydagisha marhamat qiladi: "Har bir jon o'limni totguvchi" (185-oyat)» [2:215]. Darvoqe, hech bitta jon bu dunyoda mangu qolmaydi. Binobarin, har bitta inson oxiratini obot qilish uchun savob ish qilishi zar. Afsonada so'z borganideg, jannatdan joy beradigan savob ishning biri bu xastaning holini so'rash. «Dinimizda xasta odamni borib ko'rishlik, uning sharoitidan xabar olish, ehtiyojlarin qondirish mo'minlarning bir-birlaridagi haqi hisoblanadi. Xasta musulmonning boshqa ahli musulmonlar ustida haqi bor bo'lib, bu xastani ziyorat qilish. Xasta odamning holidan xabar olishga borganda xastani ziyorat qilish odoblariga rioya qilish zurur. Iloji bo'lsa, oziroq in'om olib, salom berib kiriladi va xastaga yaqin o'tirib, undan hol -ahvol so'raladi. Xastaning gapini tinglagandan so'ng, xavotir olmang, yuzlaringiz yaxshi, rangingiz zilol, inshaallax tez orada hech narsa ko'rmagandeng bo'lib ketasiz, deb tasalli beriladi. Har xil bo'lar-bo'lmas gaplarni gapirmaslik kerak. Payg'ambari'mi'z (s.a.v) bir xastani ko'rrishga borganda shundoq degan: "Zarari yo'q, inshaallax bu kasallik (sizni) gunohlardan pok qilguvchi (kasallik) hisoblanadi» [1:210-211]. Albatta, oyoqqa kirgan tikan bejiz kirmaydi, deydi dono xalqimiz. Birinchi Prezidentimiz aytganideg: «Savob-ulug' insoniy ne'mat, yuqori islomiy qadriyatlardan biridir, savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak»[3:100]. Islom dini tomonidan nasixatlanib kelayotgan xastaning holidan xabar olish, muhtojlarga yordam berish kabi toptirmaydigan odatlar xalqimiz orasida haligacha davom etmoqda.

U dunyo haqidagi so'zimizni davom ettirib, yo'qoridagi rivoyatga o'qshash "Hukm" nomli rivoyatda ham, Olloh bilan bandasining Quday menen bendesinin' suhbatini ko'rishimiz mumkin.



« Bir kuni mulla, o'tinchi va qaroqchi omonatini topshirib, Yaratganning oldiga boribdi. Tangri farishtalariga o'tinchibilan qaroqchini jannatga, mullani bo'lsa do'zaxga jo'natishga hukm qilibdi.

Shunda mulla Ollohdan nimaga bunaqa qilganini so'rabdi. Shunda, javob kuydagicha bo'libdi: "o'tinchi bir umr odamlar uchun o'tin tashidi, qaroqchi esa mening erdagi qo'lim edi. Men uning bilan shaytonning makriga ergashib, boylikga oshko'z bo'lib, insoniylikni unutgan bandalarimni jazoladim. Sening vazifang esa ikkalasidan ham mas'uliyatli bo'lib, odamlarga ilm o'rgatishing kerak ei. Uning o'rniga sen ulardan majburlab va aldab sadaqa yig'ding. Menga sening qalbingda hesh qachon joy bo'lmagan. Shuning uchun sening joying faqat do'zaxda,-debdi"» [1:273].

Rivoyatning tub na'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'tinchi umri davomida masjidga bormasaham, diniy talablarni bajarmasada, o'tin tashib odamlarning ehtiyojini qondirgan. Qaroqchi bo'lsa, boylik ko'zini ko'r qilib, o'zligini yo'qotgan odamlarni tavbaga keltirib, boylikning vaqtincha narsa ekanligin yodiga solidi. Sababi, boylik bu davomiy narsa emas, buni biz qaroqchi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Odamni chiroyli, yuksak ma'naviyatga etaklovchi va hesh kim tortib olib bo'lmaydigon boylik bo'lgan ilmni odamlarga o'rgatmaganligi uchun mulla do'zaxga hukm etiladi. Bu rivoyatdan xulosa qiladigan bo'lsak, albatta ilm o'rganish va bilganini boshqalarga o'rgatish sunnat. Bu to'g'risida Payg'ambarimiz aytadi: «Ilm o'rganib, uni boshqalardan yashigan odamlarni, Olloh qiyomat kuni olovli noqta bilan tushovlab qo'yadi» [4:30]. Muxammad (s.a.v) «Kimki insonlarga ta'lim berish maqsadida bir bop ilm o'rgansa, unga etmish siddiqning savobi beriladi» [5:29]-deb aytadi. Islom dinida bilganini o'rgatmaslik, ilm sohasida qizg'onshaqlik qilish, eng og'ir gunoh ekanligi aytilgan. «Qur'on» da «Ilm» so'zi «Alima» - bilish negiziga tayangan kaloiymalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda aniqlangani bekorga emas albatta» [6:29]. Shu jumladan «Qur'on» da bunaqa qatorlar juda ko'b uchrashadi. Masalan, "bir soat ilm o'rganish tuni bilan namoz o'qib shiqqandan afzaldir deyilgan. Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutgandan yaxshiroqdir delingan. Shunga o'xshash jumalarni ko'plab keltirish mumkin. Sababi, islom dinining asosiy maxsadi ham, yomonlikning oldini olish, odamlarga yomonlikning yoqimsiz oqibatlarini tushuntirish va ularni to'g'ri yo'lda yurishga shaqirishdan iborat.

Oxirat va u dunyoda Ollohning oldidagi savol-javob, Jannat, do'zax haqidagi tushunchalar, "Qur'on" deb nomlangan rivoyatda xam ko'rishimiz mumkun. «Rivoyatda Xarunning ziqna va qizg'anchiq bo'lishi, Musoni zinokarlikda ayblashi natijasida, do'zaxga tushichi so'z qilinadi» [1:273].

Islom dining asosiy ta'limoti bo'lgan imon va uning komponentlaridanbiri bo'lgan, oxiratga ishoch g'oyasi to'g'risida diniy kitoblarda juda ko'p ma'lumotlar mavjud. Yo'qorida aytilgan u dunyo, yoki oxirat to'g'risidagi e'tiqodimizni rivoyatlar bilan tasdiqlash yanada ajoyib tushuncha qoldiradi. Undagi ma'lumotlar, voqealar, savol-javoblarda eshitkan odamlarda hech qanday gumon qoldirmaydi. Biroq, bu voqeaning aniq sodir bo'lgani

to'g'risida hech qanday xujjatli dalillar yo'q. Shuning uchun, bu afsona va rivoyatlarning umir haqiqatiga qanchalik to'g'ri kelishi yuzasidan aniq xulosa shiqarish qiyin.

Xulosa qiladigan bo'lsak afsona va rivoyatlarda musulmonlarning asrlar davomida to'plangan ma'naviy dunyosi, ularning dunyoga ko'z-qarashi, oq bilan qora, savob bilan gunoh, yaxshi va yomon to'g'risidagi donolik o'ylari, karomatning inson e'tiqodlari, odamlarning hayot bilan maxkam aloqadorligi, diniy e'tiqodlarning haqiqat bilan bog'langan alohida bir ilohiyligi so'z qilinadi. Bu o'z navbatida yoshlarda, kitobxonlarda kindik qoni tomgan yeriga, xalqiga, Vataniga bo'lgan muhabbatini oshiradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Каракалпак фольклоры. Коптомлык. 81 том. Н. Каракалпакстан. 2014.
2. Вахаутдинов Ш. Камил инсан. Т: 2015.
3. Каримов И.А. Ватан ва халк макгу колади. Т: 2010.
4. <sup>1</sup> Абу Довуд, Термизий, Ибн Можа, Ибн Ҳаббон, Ҳакимлар ривояти. Иёху улумид-дин.
5. Абу Мансур Дайлабий заиф санъад билан ривоят қилган. Иёху улумид-дин.
6. Носирхужаев С.Х, Лафасов М.Ф, Зарипов М.З. Манавият асослари. Т: 2002.